



TA'LIM JARAYONIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

Shodmonov X.M.

Farg'ona Davlat universiteti, Texnologik ta'limgan

Kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Sotvoldiyeva X.

FarDU Fizika-texnika fakulteti magistratura mutaxassisligi

2- bosqich magistranti

Annotatsiya. Maqolada, ta'limgan jarayonida interfaol usullar va metodlarni qo'llashning dolzarbligi, ahamiyati va ushbu metodlarni ta'limgan-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiya sifatida qo'llanilishi hamda ularni samarali tashkil etish uchun zarur talablar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *interfaol, barkamol avlod, texnologik model, innovations, multimedya, liberalizatsiya, modernizatsiya, "Klaster", "Charhpalak", "Sexrli uchburchak", "Skarabey",*

“Ta'limgan to'g'risidagi” Qonun, “Kadrlar taylorlash milliy dasturi” asosida ta'limgan tizimini tubdan isloq qilish, ta'limgan jarayonining zamonaviy ta'limgan usullari, yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish dolzarb mummolardan biri bo'lib, bir necha yillardan buyon bu tadqiqot ustida ish olib borilmoqda.

Ma'lumki, barcha ta'limgan muassasalarida interfaol metodlar bo'yicha muhim ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va bu borada ko'plab katta yutuqlarga erishilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunga misol qilib, ana shunday tadqiqotlar natijasida yozilgan, N.Saidahmedovning “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya qo'llanmasi”, I.Q.Tolipov, M.Usmonboevaning “Pedagogik texnologiyalarining tatbiqiy asoslari” o'quv qo'llanmasi, J.G.Yo'ldoshev, F.Yo'ldosheva, G.Yo'ldoshevalarning “Interfaol ta'limgan – sifat kafolati qo'llanmasi”, T.G'afforovaning “Boshlang'ich ta'limgan zamonaviy pedagogik texnologiyalar” kabi o'quv qo'llanmalarini ko'rsatish mumkin.

I.A.Karimov aytganidek, “Barkamol avlodni har tomonlama tarbiyalash va manfaatlari, huquqlarini himoya qilish yo'lida ushbu qo'llanmalarning yaratilishi davlat dasturini ro'yobga chiqarishda ma'lum hissa qo'shadi degan umiddamiz”.



Interfaol usullarni o'quv jarayonida qo'llash ta'lim tizimida keng tarqalib bormoqda. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik ham ijodkorlikda tashkil etishni taqozo etmoqda. Bir so'z bilan aytganda o'quv jarayoni markazida o'quvchi bo'lmos'i lozim va o'quv jarayoni unga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lishi talab etilmoqda.

Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchining o'quv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, qiziqish, hohish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Bunday ta'lim o'qituvchi va o'quvchida doimiy ijodiy izlanish, uzuksiz o'z ustida ishlash imkoniyatini beradi. Bu holatning ijobiy kechishi ta'limda sifat va samaradorlikning kafolatidir.

O'zbekistonda "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga asosan ta'lim-tarbiya sohasini isloh qilish – shaxs manfaatining ustivorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatda muhim ahamiyatga ega bolganligi sababli ta'lim-tarbiya jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni olib kirish, ta'limning yangilangan texnologik modellarini yaratish, 2011 yil 15 oktyabr 02-3821-sonli buyrug'iga asosan "Dars muqaddas" tadbirini amalga oshirish va ta'lim-tarbiya samaradorligini yanada oshirish – ta'lim sohasidagi eng dolzarb masalalardir. Shunday ekan, ta'lim-tarbiyaning maqsadini ro'yobga chiqarish va mazkur soha oldiga qo'yilgan vazifalarini bajarishda yuqori samaradorlikka erishishni kafolatlash zamonaviy pedagogik texnologiyaga asoslangan dars loyihibarini yaratishda asosiy maqsad bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim muassasalarida ta'lim- tarbiya jarayonlarini tashkil qilish va "Dars muqaddas" tadbirini amalga oshirish quyidagi yo'naliishlarda olib boriladi.

- 1.O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ta'limning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishining garovidir.
2. Dars ishlanmasining tarkibiy qismlari.
3. O'qituvchilarni o'z ustilarida mustaqil ishlashlari, ijodiy izlanishlari orqali talim samaradorligini oshirishga oid yordam beradigan omil – darslarni tahlil qilish.

Dars – bu sinfda aniq maqsadlarni ko'zlab, belgilangan vaqt oralig'ida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar uchun o'quv-tarbiya jarayonining tashkil etilishidir, "Bir soatlik yaxshi dars – buyuk bir asardir". Zero, bugun bizning vatanda yuqoridagi vazifalarini sifatli darajada bajarish, ya'ni sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, ularni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun barcha shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan.



O'qituvchilarning darslarda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalar, innovatsion, interfaol usullardan foydalanganliklari bois samaradorlikka erishmoqdalar.

“Ustoz-shogird” tizimi asosida ustoz sifatida yosh o'qituvchilarga metodik yordam ko'rsatish, ustoz-shogird tajribalarini yoyish bilan bir qatorda ilg'or pedagogik texnologiyalar, interfaol, innovatsion usullar, multimedya vositalari asosan ochiq darslarda namoyish etilmoqda. O'qituvchining darsga tayyorgarligi ikki qismdan iborat: o'qituchining umumiy tayyorgarligi va o'qituchining kundalik tayyorgarligi.

O'qituvchining darsga tayyorgarligi natijalarini o'rganish va tahlil qilish jarayoni shuni ko'rsatdiki, o'qituvchining shogirdlarini darsda faol qatnashishi, puxta bilishi, o'quv-qobiliyat mahoratiga doimiy e'tibor qaratishi hamkorlik saviyasini oshirar ekan, shu o'rinda alohida takidlash joizki, o'qituvchi o'quvchini o'zining talab va shartlariga bo'ysunuvchi, itoat etuvchi shaxs deb hisoblamasdan balki uning mustaqilligini, o'ziga xosligini e'tirof etgan holda hamkorlik munosabatida bo'lishi darkor, qolaversa u o'quvchilar bilan dars yuzasidan munosabatlarini tahlil qilishi, taqqoslab bilim berib borishi kerak.

“Ta'lism to'g'risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” “Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummiliy dasturi” ni ta'lim jarayoniga tadbiq etish bilan birga, ta'limda sifat va samaradorlikka erishish va shu orqali modernizatsiya qilingan ta'lim standartlarini to'liq bajarilishini ta'minlash dolzARB muammolardan biridir.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarning o'quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta'lism-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Zamonaviy ta'limga tashkil etish, ayniqsa, interfaol metodlardan foydalanish asosida dars jarayonlarini tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Interfaol usullarni o'quv jarayonida liberalizatsiya qilish, demokratlashtirish, hamkorlik hamda ijodkorlikni tashkil etishni taqozo etmoqda.

Mavjud shakl va vositalar yordamida interfaol metodlar bilan darslarni tashkil etish quyidagilarni kafolatlaydi:

- pedagogik faoliyat (ta'lism-tarbiya jarayonining) samaradorligini oshirishi;



- o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror toptirishi;
- o'quvchilar tomonidan o'quv predmetlari bo'yicha bilimlarning puxta egallanishini ta'minlanishi;
- o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko'nikmalari- ning shakllantirilishi;
- o'quvchilarning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart- sharoitlarni yaratishi;
- ta'lim-tarbiya jarayonida demokratik va insonparvarlik g'oyalariningustivorligiga erishishni kafolatlashi zarur.

Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning turli vositalari va ularning ta'siri o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. Bu interfaol usullarni to'gri tanlash, o'z vaqtida va unumli qo'llashga bog'liq. Shunday ekan, ta'lim jarayonida interfaol usullarning samarali qo'llanilishiga quyidagi talablarni yuqori darajada bajarish bilangina erishish mumkin:

- mazkur usulni qo'llash uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rish va rejalashtirish lozim;
- ushbu usulni qo'llash uchun tegishli vaziyat yaratilishi zarur;
- interfaol ta'lim jarayoni umumpedagogik talablar asosida, hissiyot-ehtiroslarga berilmagan holda, do'stona, samimiyatli ravishda tashkil etilishi;
- multimediya jarayoni o'quvchining erkin fikr yuritish, o'zining ichki kechinmalarini ijodiy bayon qilishlari uchun tegishli sharoitning yaratilishi;
- interfaol metodlar turli shakllarda amalga oshirilishi zarur.

Shunga ko'ra, interfaol metodlarning quyidagi shakllaridan ta'lim jarayonida keng ko'lamda foydalilmoqda: "Aqliy xujum", "Muammoli vaziyat", "Klaster", "Mustahkamlash", "Charhpalak", "Sexrli uchburchak", "Tushunchalar tahlili", "Skarabey", "O'ylab javob bering" va boshqalar.

Samarali o'qitish shakllarini to'g'ri tanlash, darsning turi (ma'ruza, amaliy, seminar) va o'tiladigan mavzuning mazmuni, o'quv xonasida yaratilgan sharoit va jihozlarning mavjudligini e'tiborga olgan holda, o'qituvchining bilim darajasi, pedagogik tajribasi hamda mahoratiga tayangan holatda amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki o'qituvchi yuqorida ta'kidlab o'tilgan kafolatlovchi holatlarni e'tiborga olgan holda, interfaol metod va usullarini to'g'ri qo'llab, qo'yilayotgan talablarga qat'iy amal qilgan taqdirdagina interfaol darslarni yuqori samaradorligiga erishishi va ko'zlangan maqsadiga yetishishi mumkin.



Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch”. Toshkent, 2008.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida” gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” 1997 yil 29 avgust.
- 3.O.Q.Tolipov, M.Usmonxo’jaeva “Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari” T.:“FAN” 2006 yil.
- 4.N.Saidahmedov “Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya” T-2002 yil.
- 5.J.G’.Yo’ldoshev, F.Yo’ldosheva, G.Yo’ldosheva “Interfaol ta’lim – sifat kafolati” T.: 2008 yil.
- 6.T.G’affarova “Boshlang’ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologi- yalar”. T.: “Tafakkur” 2011 yil.